

## ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA METAFORIK OBRAZNING O‘RNI

*Berdiyeva Zebo Uralovna f.f.f.d. (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlikdan tashqari, ma’no ko‘chishining qorishiq holda qo‘llanishi hamda metafora-metonimiya, metonimiya-sinekdoxa tarzida uchraydigan ko‘chimlar og‘zaki nutqda ham, badiiy adabiyotda ham ko‘p uchrashi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kam uchrashi, estetik funksiyadorligi jihatidan u metaforadan quyiroq turishi olam va ijtimoiy borliqqa munosabati hamda unda tutgan o‘rni muammo sifatida o‘rganilgan.

**Аннотация.** Помимо метафоры, метонимии, синекдохи и дежурства, в статье рассматривается смешанное использование смысловых переносов, а также то, что переносы, встречающиеся в метафоре-метонимии, метонимии-синекдохе, часто встречаются как в устной речи, так и в художественной литературе. В “Словаре литературоведения” исследуется проблема того, что в художественной литературе, особенно в современной литературе, где преобладает метафорическое мышление, метонимия встречается реже, чем метафора, по эстетической функциональности она стоит ниже метафоры.

**Annotation.** In addition to metaphor, metonymy, synecdoche, and assignment, the article addresses the blurred use of meaning migration, and the frequent use of metaphorically-metonymy, metonymy-synecdoche in both oral and nonfiction. The “Glossary of literary studies” explores metonymy as a problem in fiction, especially in modern literature, where metaphorical thought is leading, and in terms of aesthetic functionality it stands below metaphor as a problem for its attitude to the universe and social being, and its role in it.

**Kalit so‘zlar:** metafora, metonimiya, metaforik obraz, badiiy ko‘chim, istiora g‘oyaviy estetik yangilanish, meditativlik .

**Ключевые слова:** метафора, метонимия, метафорический образ, художественное движение, истерия идейно-эстетическое обновление, медитативность.

**Keywords:** metaphor, metonymy, metaphorical image, artistic movement, istiora ideological aesthetic renewal, meditativity .

O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa “Metafora (yun. metaphora –ko‘chirish, ko‘chim) adabiyotda so‘z yoki iborani o‘xshashlik va o‘xshatishga asoslangan ko‘chma ma’noda ishlatish va shunday ma’noda ishlatilgan so‘z yoki ibora; istiora, majoz (mas. quloq so‘zining dutorning qulog‘i birikmasidagi ma’nosi metafora asosida yuzaga kelgan)”<sup>1</sup>, deb sharhlangan. Bu ta’riflardan maqsad, Rauf Parfi she’riyatining boshdan-oyoq metaforalarga boyligi, betakrorligi va falsafiyli ta’minlaganligi hamda

ta'sirchanligini oshirishga asos bo'lganligini alohida ta'kidlashdir Tarixdan ma'lumki, san'atkor – hamma vaqt mavjud tartiblarga qarshi isyonkoridir. Chunki inson joriy qilgan tartiblar hech qachon mukammal bo'lishi mumkin emas. San'atkor esa hamisha ilohiy mukammallikni sog'inaveradi. "Haqiqiy shoir uchun, – deb yozgandi nazariyotchi, nuktazarb olim Bahodir Sarimsoqov, – hayot she'riyat bo'lsa, she'riyat uning hayotidir. Men buni ko'plab shoir-u shoirlar hayoti va ijodida kuzatib, shunga iqrar bo'ldimki, tug'ma aql, qaynoq hissiyot, kuchli xarakter va adolatpeshalik kabi xislatlar shoir shaxsiyatida mujassam bo'lmog'i shart. Metafora deganda "Ko'proq o'xshashlik, analogiya tamoyiliga, qisman hodisalarning qarama-qarshiligiga asoslanadigan eng ko'p tarqalgani ko'chim" tushuniladi.

Jahon, mumtoz va zamonaviy adabiyotda eng ko'p o'xshatishga uchragan obraz, tashbehga aylangan qalb va ko'z bo'lsa ham, ehtimol. Mana-man degan ulug'lar ham iloha ko'zlar oldida tiz cho'kkanlar, nuriga, nazariga intilganlar, shu'lasidan yonganlar, goho bir mehrlig nigohiga zor-u giriftor, qurbon bo'lganlar, unga aylanishni yo undan najot topishni Haqdan iltijo qilib so'raganlar. Xullas, ko'zda sir, hikmat ko'p, u kuydirishi ham, gullab-yashnatishi ham mumkin. Rauf Parfi 1964-yilda yozgan bir she'rida yor ko'zida porlab turgan bahorni ko'radi:

Nigohing ko'rinar, ko'zlaring...

Erimasin yerda yongan qor,

Qor ustida sening izlaring,

Qor ostida mudragan bahor.

Oshiq shu qadar yorga intizor, ilhaq, sog'inganki, oppoq qorda uning ko'zining shu'lalari ko'ringandek bo'lib tuyulaveradi. Shu hol – kechinma, hayrat – xayolning ketishini – erishini umuman istamaydi va aynan shu qor (yor ko'zining nigohi tushgan, ko'ringan)da yorning izlarini ham ko'radi oshiq. Metafora, tasvir, tazod, oksimoron bilan ziynatlangan to'rt satr lirik qahramon ruhiyatida kechayotgan dolg'a, uyg'onish, o'zgarishni yanada kuchaytirgan va o'quvchi ko'z o'ngida holatni tabiiy jonlantirgan. Qorning ostida esa tabiiy "mudragan bahor".

Chaman-chaman ochilgan gullar,

Bahor qo'shiq aytarmish qorga.

Qo'shiq aytib daryo shovullar.

Ta'zim ila go'zal bahorga.

Bahor oshiq qalbida uyg'ongan, uni o'tga, otash xayollarga solgan yorning ishq, hajri, ko'zlarida porlagan muhabbat. Yorning ko'zi – bahor (qalbda uyg'ongan ishq) qorga qarab qo'shiq aytayotgandek. Ikkinchi badda qo'llangan jonlantirish (intoq), tashbeh, tadrij san'atlari bilan shoir oshiq iztirob va sog'inchlarini yorqin ranglarda musavvirdek chizmoqda.

Badiiy adabiyotning hayotni, insoniyat faoliyatini obrazli shaklda ko'rsatishi bu sohadagi muhim masalalardan sanaladi. Chunonchi, hayotiy voqealarni, qarama-qarshiliklar, turli muomala-munosabatlar tizimini ta'sirchan, jonli, jozibali shaklda tasvirlash maqsadini inson obrazi tarkibida ifodalay olish, ustiga-ustak, bu jarayonlarni obrazli yo'sinda bera olish o'ta og'ir va mashaqqatli faoliyat. Yozuvchining san'atkorligi ana shu murakkab vazifani qay tarzda bajara olganligi bilan o'lchanadi va baholanadi. Kishilar obraz-ziynati orqali hayotni tasvirlash uchun yozuvchiga o'ziga xos, takrorsiz badiiy tasvirlash uslubi lozim bo'ladiki, o'z navbatida uslub

masalasi, uslubni shakllantira olish vazifasi mohiyatan obraz tushunchasi va obraz yaratish vazifasidan ham birmuncha qiyin hisoblanadi. Jahon adabiyotshunosligida ulkan olim V.G.Belinskiyning “Uslub – bu iste’doddir” degan nazariy va amaliy ahamiyatga molik konsepsiyasi ko‘p ishlatiladi, ko‘p talqin qilinadi. Binobarin, uslubda yozuvchi va shoirning, eng avvalo, beqiyos badiiy mahorati, yuksak san’atkorlik darajasi yorqin namoyon bo‘ladi. Ijodkorning ijodkorligi, hayot voqeligini naqadar jozibali va ishonchli tasvirlab bera olishi, eng avvalo, uning o‘z iqtidorida shakllantirgan badiiy-tasvirlash uslubiga bevosita bog‘liq. Taniqli uslubshunos olim A.N.Sokolov shunday yozadi: “Asar uslubi ham g‘oya, ham obraz, ham metod, ham janr bilan belgilanadi. Uslubiy omillar rang-barangligini qandaydir bir masalaga bog‘lashga intilish – oddiy jo‘nlik yoki soddalik belgisi sanaladi. Uslub yordamida yaratiladigan omillarning turliligi va rang-barangligini tan olish kerak bo‘ladi. Bunday adabiy omillarning har biri uslubning shakllanishiga u yoki bu darajada ta’sir etadi”<sup>2</sup>.

Adabiyotshunoslikda badiiy uslub masalasida nihoyatda ko‘p ishlar qilingan. Hatto, ulug‘ moziyning atoqli olimlari Aristotel, Forobiydan boshlab bugungi eng yosh adabiyotshunoslarga nazar tashlangan, qaysi bir qirrasini o‘rganilgan masala sifatida e’tiborni tortadi.

Ma’lumki, she’riy asarlarda shoir lirik kechinmalari, his-tuyg‘ulari, falsafiy mushohadalarini yuzaga keltirishda badiiy obraz asosiy o‘rinda turadi. Antik davrda Aristotel poeziya masalasiga to‘xtalganda “o‘xshatish garmoniya va ritm singari qadimdanoq odamlarning tabiatiga xos xususiyatdir”<sup>3</sup> deb belgilarkan, so‘z san’atida obraz yaratilishi zamirida ham o‘xshatish zarurligiga ishora qiladi. Zero, har qaysi ijodkor inson hayoti va uning ruhiyatiga mos borliq hodisotlaridan o‘xshashliklar topadi, yangicha poetik obrazlar yaratishda metaforaga murojaat qiladi. Munaqqid ta’kidlaganidek: “Metafora she’riyatda obrazli tafakkur natijasi bo‘lib yaraladi. Metafora til hodisasi bo‘lsa ham, o‘zining bu xususiyatini poetik nutqdagina to‘la namoyon etadi”<sup>4</sup>. Metafora poetik tafakkur asosi sifatida she’riyatda muhim o‘rin tutadi. Bu haqida N.D.Arutyunova yozadi: “...metafora vosita yoki qurol emas, balki poetik tafakkur asosidir. Uning mohiyati va maqomga binoan badiiy matnga mos kelishi talab etiladi”<sup>5</sup>. Metafora shoirga o‘z ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va tashqi olamni (ichki olamga qiyosan) anglashga yordam beruvchi tengi yo‘q vositadir. Demak, metaforani faqat ko‘chim(trop)larning bir turi sifatida talqin qilish barham topib, uning ijodkor uchun ham, o‘quvchi uchun ham poetik tafakkur qilish va badiiy-funksional jihatlariga e’tibor qaratilmoqda<sup>6</sup>. Metafora “turli darajalarda: poetik ko‘chim, poetik obraz va butun boshli she’r doirasida namoyon bo‘ladi. She’riyatda metaforaga asoslangan badiiy tasvir va ifoda vositalari muhim o‘rin tutadi. Shoirning nafasatga yo‘g‘rilgan, rang-barang shakllarga ega, asosiysi, betakror va hech kim tomonidan qo‘llanilmagan metaforalari bugungi o‘zbek she’riyatida yetakchilik qiladi. Jonsiz-jonli narsalarga inson tabiatiga xos xususiyatlarni ko‘chirish asosida shoir turli xil individual metaforalar yaratdi. Shoir she’rlaridagi ayrim obrazlar ko‘chim darajasidagi metaforik obraz tabiatga ega. Muayyan ko‘chma ma’nodagi bunday obrazlar uning she’rlaridagi mushohadalilik va sirlilikni ta’minlashga, o‘quvchining

nozik badiiy ilxomini o‘stirish, uning tuyg‘ulariga emotsional ta’sir o‘tkazishga xizmat qilgan. Zero, haqiqiy ijodkor voqelikdagi narsa-hodisalarning tashqi o‘xshashligi emas, balki ichki o‘xshashlikka asoslangan holda obrazlar yaratadiki, bevosita bu o‘quvchini she’r atalmish sirli va mo‘jaz dunyoga oshno tuttiradi, uni mushohadaga, falsafiy qarashlarga undaydi. She’rlari tahlilga tortilgan ijodkorlar ilk ijodidayoq she’rlarida barchaga ko‘rinib turgan oddiy tasvirlar, quruq bayonlarni yozishmaydi. Ijodkorning tasavvur olami kengligi, har qanday So‘zni yuksak obrazga aylantira olish mahorati – ularni o‘zbek adabiyotida boshqa shoirlardan keskin ajratib turadi.

She’riyatda badiiy g‘oya va maqsadni ifodalash, badiiy-estetik ta’sirchanlikni oshirish, uslubidagi individuallik va badiiy mahoratni belgilashda metaforik obrazlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkor tafakkur va taxayyulining mahsuli o‘laroq yuzaga kelgan mavhum obrazlarni kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirish, mohiyatni to‘laqonli idrok eta olishiga erishishda metaforaning alohida o‘rni bor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Парфи Р. Сакина. – Тошкент: “Мухаррир”, 2013. –Б.376.
2. Парфи Р. Сайланма. – Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.432.
3. ЎзМЭ. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2005 10-том. –Б.571.
4. Усмонов С. Метафора /Ўзбек тили ва адабиёти,1964.4-сон.–Б.35-37.  
Хўжамкулов А. Ўзбек тилида метафоранинг таснифланишига доир.Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 20-йиллигига бағишлаб чиқарилган илмий мақолалар тўплами. Лингвист.2 –китоб.– Тошкент:Академнашр,2011.–Б.85–88;
5. Фитрат А. Адабиёт қоидалари // Фитрат А. Танланган асарлар 5 томлик. 4-том. – Тошкент:Маънавият, 2006. – Б.11-88.
6. Berdiyeva Z.U. Metaforik obraz va uning spetsifik tabiati // Filologiyaning zamonaviy muammolari. – Toshkent, 2022. –Б.173-177.